

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**XOLOVA MADINA DJALGASHBAYEVNA**

***G.HIRSUTUM* L. NAVLARINING STRESSLARGA CHIDAMLILIGINI  
OSHIRISHDA “A<sub>1</sub>” VA “B” GENOMLI YOVVOYI DIPLOID TURLARI  
GENETIK POTENSIALI**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Xolova Madina Djalgashbaevna**

*G.hirsutum* L. navlarining stresslarga chidamliligini oshirishda “A<sub>1</sub>” va “B” genomli yovvoyi diploid turlari genetik potentsiali ..... 3

**Холова Мадина Джалгашбаевна**

Генетический потенциал диплоидных диких видов с геномами “A<sub>1</sub>” и “B” в повышении устойчивости сортов *G.hirsutum* L. к стрессовым факторам ..... 21

**Xolova Madina Djalgashbaevna**

Genetic potential of wild diploid species with A<sub>1</sub> and B genomes for enhancing stress tolerance in *G.hirsutum* L. cultivars ..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ ..... 45

List of published works .....

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**XOLOVA MADINA DJALGASHBAYEVNA**

***G.HIRSUTUM* L. NAVLARINING STRESSLARGA CHIDAMLILIGINI  
OSHIRISHDA “A<sub>1</sub>” VA “B” GENOMLI YOVVOYI DIPLOID TURLARI  
GENETIK POTENSIALI**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B1299 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.genetika.uz](http://www.genetika.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Ernazarova Dilrabo Qo'shboqovna</b> biologiya fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Ubaydullayeva Xurshida Abdullayevna</b> biologia fanlari doktori
	<b>Egamberdieva Saida Abdusamatovna</b> biologia fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz p/b. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90; E-mail: [igebr\\_anruz@mail.ru](mailto:igebr_anruz@mail.ru))

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz p/b. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A. Narimanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
q/x.f.d., professor

**I.Dj. Kurbanbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, b.f.d., professor

**I.T. Qahhorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, q/x.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Ma'lumki, dunyo g'oz maydonlarining katta qismini o'rta tolali g'oz navlari egallaydi. *Gossypium L.* turkumiga mansub yovvoyi diploid g'oz turlari muhim genetik manba bo'lsa-da, ulardan amaliy seleksiyada samarali foydalanish o'ziga xos yondashuvlarni talab etadi. Xususan, "A<sub>1</sub>" va "B" genomli yovvoyi diploid turlarning genetik potentsiali katta ahamiyatga ega. Ushbu turlarda mavjud genlar orqali *G.hirsutum L.* navlarini takomillashtirish, ularning sifatini va chidamliligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu genetik resurslar kelajakda yuqori hosildor va stressga chidamli g'oz navlarini yaratish uchun muhim zamin yaratadi. Shu sababli, bugungi kunda katta genetik imkoniyatlarga ega bo'lgan diploid g'oz turlarini eksperimental poliploidiya usullari bilan genetik-seleksion izlanishlarga keng jalb etish, shuningdek, madaniy navlar genofondini boyitish borasidagi tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda so'nggi yillarda mahalliy g'oz navlarning stress, kasallik va zararkunanda hashorotlarga chidamlilik xususiyatlarini madaniy navlarning qimmatli xo'jalik belgilari bilan birlashtirish strategiyasi keng qo'llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan, g'oz genofondining muhim belgilarini o'zida mujassam etgan, biotik va abiotik stresslarga tez moslasha oluvchi yovvoyi shakllardan resurs sifatida foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu borada, genetik xilma-xillikni oshirish bilan bir qatorda, iqlim o'zgarishlari sharoitida barqaror va yuqori hosildor navlar yaratishga xizmat qiluvchi fundamental tadqiqotlarni rivojlantirishra alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda agrar ishlab chiqarish hajmini oshirish va uning barqarorligini ta'minlash maqsadida yangi navlarni yaratish va ishlab chiqarishga keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Paxtachilik sohasida esa genetika va seleksiya yo'nalishlarini rivojlantirish, shuningdek, yovvoyi g'oz turlaridan olinadigan germoplazmadan samarali foydalanishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, g'ozaning yovvoyi shakllari hamda navlarini seleksiya jarayonlariga jalb qilish orqali ilmiy va amaliy yutuqlar qo'lga kiritildi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan yangi navlarni yaratish"<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, *G.hirsutum L.* turichi xilma-xilliklarining sistematikada joylashgan o'rnini, filogenetik munosabatlarini o'rganish, turichi duragaylash natijasida chatishuvchanlik ko'rsatkichlari va ulardagi morfologik va qimmatli xo'jalik belgilari aniqlash asosida yuqori qimmatli xo'jalik belgilariga ega duragaylar olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-sonli "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 2020 yil 13 maydagi 282-sonli "Qishloq

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»

xo‘jaligi ekinlari navlarini sinash markazi faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi o‘simliklari turlarining milliy genbankini yaratish to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo olimlari tomonidan *Gossypium* L. turkumi doirasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, g‘o‘zaning diploid va tetraploid turlari sistematikasi, turichi hamda turlararo duragaylash, eksperimental poliploidiya uslublaridan foydalanish asosida yuqori qimmatli xo‘jalik belgilariga ega shakllar olish, ularning turli xil qishloq xo‘jalik kasallik va zararkunanda hashorotlarga chidamligini o‘rganish bo‘yicha H. Yu, va *boshq.*, 2024; Wang, 2018; Yin 2020; J.F. Wendel, 2010; Alves va *boshq.*, 2013; Newaskar 2013; Menezes va *boshq.*, 2014; W. Li va *boshq.*, 2021; X.Yin va *boshq.*, 2020 keng izlanishlar amalga oshirilgan.

Respublikamizda g‘o‘za sistematikasi va genofondi bo‘yicha A. Abdullayev (2005), S.M. Rizayeva, (2017) tomonidan muhim ma‘lumotlar olingan. Turli genotipli shakllar ishtirokida turlararo duragaylar olish va ota-ona belgilarning irsilanishi doirasida muayyan muvaffaqiyatlarga (M.B. Xalikova, 2016; S.A. Egamberdieva 2022; M.T. Khidirov, 2023; S.K. Arslanova, 2025) erishilgan. G‘o‘zaning tetraploid vakillarining duragaylanishi, morfobiologik tasnifi F.U. Rafieva, 2017, sitogenetik xususiyatlari D.Q. Ernazarova, 2023 asosida filogenetik shajaralari yaratilgan. I.Yu. Abdurakhmanov va *boshq.*, (2010, 2016), Z.T. Buriev va *boshq.*, (2018), F.N. Kushanov va *boshq.*, (2021) kabi olimlar yovvoyi va madaniy turlar molekulyar biologiyasi borasida qator tadqiqotlar olib borishgan.

Biroq, *G. herbaceum* L. va *G. anomalum* turlarining biotik (kasalliklar, zararkunandalar) va abiotik (qurg‘oqchilik, sho‘rlanish, yuqori harorat) stresslarga chidamli shakllari, shuningdek, *G. hirsutum* turining yuqori sifatli tolali noyob populyatsiyalari mavjudligiga qaramay, bu genetik resurslardan to‘liq foydalanib, yangi seleksiya materiallari yaratish bo‘yicha izlanishlar hali yetarli darajada o‘tkazilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Yovvoyi avstraliya turlarining afro-osiyo g‘o‘zalari turichi xilma-xilliklari bilan o‘zaro molekulyar-filogenetik munosabatlarini va qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** *Gossypium* L. turkumiga mansub “A<sub>1</sub>” (*G. herbaceum* L.) va “B” (*G. anomalum*) genomli yovvoyi diploid turlarining genetik xilma-xilligini baholash, eksperimental poliploidiyalash hamda ularni tetraploid navlar (*G. hirsutum* L. AD<sub>1</sub>) bilan duragaylash asosida amaliy seleksiyada foydalanish uchun stress omillariga chidamli tetraploid shakllar olishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

*G. herbaceum* L. va *G. anomalum* genetik xilma-xilligini o'rganish, o'zaro chatishish darajasini aniqlash;

olingan diploid  $F_1$  duragaylaridan eksperimental poliploidiya (kolxitsin) asosida  $F_1C$  tetraploid duragaylarini ( $2n=2 \times 52$ ) hosil qilish;

boshlang'ich manbalar,  $F_1$  va  $F_1C$  allopoliploid duragay shakllarining sitogenetik va anatomik xususiyatlarni tahlil qilish;

$F_2C$  va avtopoliploid shakllarini oq pasha (*Aleyrodidae*), o'rgimchakkana (*Tetranychus urticae*), g'o'za biti (*Aphis gossypii*) kabi zararkunanda hashorotlarga chidamliligini baholash;

*G. herbaceum*, *G. anomalum* va *G. hirsutum* turlari o'rtasidagi genetik farqlanish darajasini molekulyar markerlar (SSR) yordamida aniqlash;

$F_1$  va  $F_1C$  allopoliploidlarining morfo-biologik xususiyatlari va qimmatli xo'jalik belgilari asosida stress omillariga chidamliligi irsiylanishini tahlil qilish, shu asosida amaliy seleksiya uchun noyob boshlang'ich genetik shakllar tanlab olish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida "Noyob obyekt" g'o'za kolleksiyasidan *G. herbaceum* subsp. *frutescens*, subsp. *pseudoarbareum* ( $A_1$  genom) *G. anomalum* (B genom) hamda *G. hirsutum* L. turiga mansub Ravnaq-1, Ravnaq-2, Namangan 77, (AD1 genom) navlaridan foydanildi.

**Tadqiqotning predmeti** turli genomli g'o'za turlarini (*G. herbaceum* L., *G. anomalum*, *G. hirsutum* L.) o'zaro chatishtirish orqali olingan turlararo duragaylarning  $F_1$ ,  $F_1C$  avlodlari morfo-biologik xususiyatlari hamda qimmatli xo'jalik belgilarining tola uzunligi, hosildorlik, chidamlilik irsiylanish mexanizmlari va fenotipik o'zgaruvchanligini tahlillari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tadqiqot jarayonida g'o'za genetikasi va seleksiyasining an'anaviy usullari turlararo chatishtirish, poliploidiya, qiyosiy morfologik tahlillar, entofauna kuzatuvlari bilan bir qatorda, zamonaviy laboratoriya metodlari - sitogenetika, anatomiya, molekulyar genetik (SSR), oqim sitometriyasi orqali ploiddlik tahlili va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ilk bor diploid *G. herbaceum* L. ( $A_1$  genomli) va *G. anomalum* (B genomli) turlari bilan tetraploid *G. hirsutum* (AD genomli) turlariga mansub mahalliy navlarining o'zaro duragaylanish qobilyati hamda ularning molekulyar filogenetik munosabatlari aniqlanganda, *G. hirsutum* turi *G. herbaceum* L. kenja turlariga nisbatan *G. anomalum* turi genomiga yaqinroq ekanligi aniqlangan;

allopoliploid duragaylarning meiotik tahlili (MI bosqichi) ota-ona shakllariga nisbatan kariologik geterogenligini ko'rsatdi, buning natijasida duragaylarning onalik chang xujayralarida bivalentlar bilan birga univalent va kvadivalentlarning mavjudligi, shuningdek meiotik indeks va chang hayotchanligi ko'rsatkichlarning pastligi bilan isbotlangan;

*G. herbaceum* va *G. anomalum* turlari ishtirokida olingan  $F_1C$ ,  $F_2C$  avtopoliploid shakllarning barg kutikulasining qalinligi ( $\geq 0.85 \mu\text{m}$ ), epiderma hujayra qalinligi ( $> 20.0 \mu\text{m}$ ) va izolateral anatomik tuzilishga ega ekanligi sababli hashorotlarga (oq pasha, o'rgimchakkana, g'o'za biti) chidamliligi aniqlangan;

*G. herbaceum* L. va *G. anomalum* populyatsiyalarining genetik xilma-xilligi bilan *G. hirsutum* turlari o'rtasidagi turlararo chatishtirish, qiyosiy morfologik tahlillar va molekulyar markerlar (SSR) asosida yangi duragay shakllar tanlab olindi hamda istiqbolli navlar yaratishda samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi qimmatli boshlang'ich genetik manbalar ajratib olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*G. herbaceum* × *G. anomalum* va *G. hirsutum* chatishtirishidan olingan F<sub>2</sub>C allopoliploid duragaylar populyatsiyasidan tola uzunligi (22,0–28,0 mm va 26,0–35,0 mm oralig'ida) va zararkunanda hashorotlarga (oqqanot - *Aleyrodidae*, o'rgimchakkana - *Tetranychus urticae*, shira- *Aphis gossypii*) chidamli, qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan noyob boshlang'ich seleksion materiallar ajratib olingan;

stressga bog'liq SSR markerlari asosida *G. anomalum* genomida 15 ta qimmatli nomzod gen aniqlanib, ular MAS/GS seleksiya panellariga kiritilgan. Bu esa seleksiya jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi aniqlangan;

fenotipik va genotipik tahlillar asosida *G. anomalum* qurg'oqchilikka, subsp. *frutescens* va subsp. *pseudoarbareum* hasharotlarga yuqori chidamliligi aniqlangan;

markerlar asoslangan seleksiya (MAS) jarayonlariga g'o'za navlarini tez va aniq baholash uchun qurg'oqchilikka chidamlilik bilan bog'langan JESPR095, hashorotlarga chidamlilik bilan bog'langan BNL1666 va tola uzunligi bilan bog'langan NAU2002 DNK markerlari ajratib olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Genetik tahlillar bilan amaliy seleksiya usullarining integratsiyasi, olingan natijalarning yuqori impakt-faktorli ilmiy jurnallarda e'lon qilinganligi, barcha ma'lumotlarning statistik jihatdan ishonchliligi, shuningdek, xulosalarning mustaqil eksperimental tasdiqlanganligi hamda ilmiy-amaliy ahamiyati isbotlanganligi, uzoq muddatli eksperimental tadqiqotlar natijasida yaratilgan noyob sintetik shakllarning "G'o'za genofondi" kolleksiyasida Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida saqlanib kelinishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *G. herbaceum* va *G. anomalum* hamda *G. hirsutum* turlari o'rtasidagi filogenetik yaqinlikni birinchi marta kompleks usullar asosida tahlil qilinganligi, olingan natijalarni morfologik-biologik, agronomik va genetik jihatlardan baholanganligi, o'rganilgan g'o'za turlari uchun yangilangan filogenetik tizim ishlab chiqilganligi va ularning sistematik o'rniga aniqlik kiritilganligi, yangi genotipli duragay shakllarni tetraploid darajaga (4n) ko'tarishning amaliy imkoniyatlari aniqlanganligi, introgressiv duragaylarda belgilarning irsiylanish mexanizmlari va fenotipik o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini ochib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati g'o'za navlarining genofondini stressga chidamlilik, yuqori tola sifati kabi yovvoyi turlarning noyob xususiyatlari bilan boyitilganligi, turlararo chatishtirishga poliploidiya bilan integrallashtirgan uslubiy yondashuv tarzda qo'llanganligi, ushbu uslub asosida yangi genotipli duragay shakllarni yaratish imkoniyatini eksperimental isbotlanganligi, irsiy kombinatsiyalarga ega turlararo duragaylarni seleksion manbalar sifatida ajratib olinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** *G.hirsutum* L. navlarining stresslarga chidamliligini oshirishda yovvoyi diploid turlari genetik potentsiali bo'yicha olingan natijalar asosida:

F<sub>1</sub>C va F<sub>2</sub>C allopoliploidlarining (supsp.*frutescens*×*G.anomalum*) duragay kombinasiyasidan ajratib olingan 26D, 31D, shakllari, F<sub>1</sub>C va F<sub>2</sub>C allopoliploidlarining (subsp.*pseudoarboreum* ×*G.anomalum*) duragay kombinasiyasidan 15D, 20D shakllar urug'lari O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining "Noyob ob'ekt" g'o'za genofondi kolleksiyasiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025 yil 29 iyuldagi 4/1255-1857 son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu F<sub>2</sub> duragay kombinasiyalar "G'o'za genofondi" noyob ob'ektini yanada boyitilgan va kelgusida genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish imkonini bergan;

BNL0226, BNL1421, NAU1043, NAU1190, NAU233, BNL1231, BNL3347, BNL3792, NAU1151, NAU7049, NAU2437 kabi SSR markerlari "*Gossypium* L. turkumining dunyoviy bioxilma-xilligini genetik potentsialini o'rganish, filogeniyaning klassik uslublari asosida, tashqi muhitning biotik va abiotik ta'sirlariga bardoshli donorlar yaratish" mavzusidagi davlat byudjeti hisobidan bajarilgan ilmiy tadqiqot dasturida (2024 yil) tadqiqot namunalari o'rtasidagi filogenetik munosabatlarini va qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025 yil 21 avgustdagi 4/1255-2029 son ma'lumotnomasi). Natijada, g'o'za (*Gossypium* L.) genotiplarining genetik polimorfizm darajasini aniqlash va molekulyar markerlar yordamida o'rganilayotgan turlar va shakllarning filogenetik munosabatlariga oydinlik kiritish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta halqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“G‘o‘zaning tetraploid (AD<sub>1</sub>) navlarini boyitishda genomlararo sintetik duragaylash hamda duragay genotiplarining asosiy xususiyatlarni o‘rganish oid ilmiy manbalar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida *Gossypium* turkumining evolyutsion va sistematik o‘ziga xosliklari, genetik xilma-xilligini aniqlash va amaliy seleksiya jarayoniga jalb etish orqali yangi, abiotik va biotik stresslarga bardoshli, istiqbolli g‘o‘za navlarini yaratish tahlillari borasida mahalliy va xorijiy adabiyotlar atroflicha tahlil qilingan.

**“Tadqiqot o‘tkazilgan joy va sharoiti, manbai va uslublari”** deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida tajribalarni o‘tkazish joyi va sharoiti, tadqiqot manbalari, tadqiqotning bajarilishida foydalanilgan kimyoviy reaktiv hamda reagentlar, asbob-uskunalar, o‘simlik materiallari, gen-spetsifik va mikrosatellit DNK markerlari, shuningdek genetik, sitogenetik, embriologik, molekulyar-genetik, bioinformatik hamda statistik usullar keng yoritilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“G‘o‘zada genomlararo duragaylash (A<sub>1</sub> va B), duragay genotiplarining morfobiologik xususiyatlari va qimmatli xo‘jalik belgilar”** deb nomlanib, g‘o‘zada genomlararo duragaylash (A<sub>1</sub> va B genoplari) natijasida olingan duragay genotiplarning morfobiologik xususiyatlari va qimmatli xo‘jalik belgilarini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan. Bobda ota-ona shakllari va hosil qilingan allopoliploid duragaylarning qiyosiy morfologiyasi, turlararo introgressiv duragaylarning anatomik va sitogenetik xususiyatlari, shuningdek, diploid va tetraploid turlararo introgressiv hamda murakkab duragaylarida ba’zi qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanishi chuqur tahlil qilindi. Bobning birinchi bo‘limida *G.anomalum*, subsp.*frutescens* va subsp.*pseudoarboreum* hamda ularning o‘zaro (F<sub>1</sub>C, F<sub>1</sub>) duragaylarida morfobiologik xususiyatlari vizual tarzda kuzatilib morfologik baholandi. Tadqiqot natijalari ko‘ra, seleksiya jarayonida genetik mosligi yuqori bo‘lgan F<sub>1</sub> (F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum*) × Ravnaq-1 va F<sub>1</sub> (F<sub>1</sub>C subsp.*pseudoarboreum* × *G.anomalum*) × Ravnaq-1 kombinatsiyalarini tanlandi, yuqori urug‘ berish qobiliyatiga ega murakkab duragay shakllarni ajratib olindi va keyingi avlodlarda seleksiya samaradorligini oshirish imkonini berdi. Ayniqsa, F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum* × Ravnaq-1 kombinatsiyasi yuqori to‘liq urug‘ tug‘ilish foizi bilan istiqbolli seleksiya materiali sifatida e‘tiborga molikdir.

Bobning ikkinchi bo‘limida g‘o‘zaning turlararo introgressiv duragaylari ([F<sub>1</sub> (A<sub>1</sub> × B) × AD<sub>1</sub>], [F<sub>1</sub> (A<sub>1</sub> × B) × AD<sub>1</sub>]) sitogenetik va anatomik xususiyatlari hamda duragay avlodlarida embriologik tahlillar o‘tkazildi. Sitologik tahlillarga ko‘ra, poliploidlik darajasi (hujayra yadro ploidiyasi) aniqlandi, meyoziy metafaza I (MI) bosqichida xromosomalar kon’yugatsiyasi tiplari (univalent, bivalent, kvadrivalent) qayd etildi, meyoziy ikkinchi bo‘linishi yakunida tetradalar yetilishi baholandi va chang (polen) hayotchanligi ko‘rsatkichlari aniqlashtirildi. Bunda Ona shakl sifatida A genomli *G.herbaceum* (subsp.*pseudoarboreum*, subsp.*frutescens*), ota shakl sifatida B genomli *G. anomalum* ishtirokida olingan F<sub>1</sub> duragaylarning somatik hujayralarida 2n = 26 ta xromosoma qayd etildi va Kolxitsin bilan ishlov berilgan F<sub>1</sub>C duragaylarida xromosomalar soni ikki baravar ortib, 2n = 52 ga yetgani tasdiqlandi.

$F_1C$  duragaylarining somatik hujayralarida kuzatilgan xromosoma to'plami va kolxitsin ta'sirida yuzaga kelgan xromosoma soni o'zgarishlarini ko'rsatadi. Tadqiqotda subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum* hamda subsp.*pseudoarboreum*  $\times$  *G.anomalum* duragay shakllari o'rganilgan. Oddiy (kolxitsinsiz) duragay hujayralarida 26 ta xromosoma qayd etilgan bo'lsa, kolxitsin bilan ishlov berilgan hujayralarda xromosomalar soni ikki barobar ortib, 52 taga yetgan. Bu esa hujayra bo'linish jarayonida (mitozda) xromosomalar ajralishining to'xtashi natijasida ploidlilik darajasi oshganini ko'rsatadi (1-rasm).




**1 rasm.  $F_1C$  duragaylar somatik xujayrasi tarkibidagi xromosomalar ko'rinishi.** a,b) Kolxitsin ta'sirida 31D raqamli  $F_1C$  (subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum*) ( $10\times$ , ( $40\times$ ), d,e) 26-27D raqamli  $F_1C$  subsp.*pseudoarboreum*  $\times$  *G.anomalum* ( $40\times$ ) duragaylar ildiz uchidan tayyorlangan preparatlar mikroskop tagida mitoz bosqichlari ko'rinishi.

Mikroskopida olingan tasvirlar (1-rasm a-e) turli kattalashtirish darajasida ( $10\times$  va  $40\times$ ) mitoz bosqichlarini aks ettiradi: metafaza plastinkasida xromosomalar aniq ko'rinadi, ularning soni va joylashish tartibi esa ploidlilik darajasini tasdiqlash imkonini berdi. Kolxitsin ta'siridagi hujayralarda xromosomalar zichroq joylashgan va ularning soni ko'paygan bo'lib, bu alopoliploid shaklga xos xususiyatdir.

Tadqiqot natijalari asosida uch xil turlararo duragay kombinatsiyalarda ( $F_1C$ ,  $F_1$ ) meyoziy metafaza I bosqichidagi xromosomalar kon'yugatsiyasi ayrim buzilishlar bilan kechganligi aniqlandi. 32D raqamli  $F_1C$  (subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum*) turlararo duragay kombinatsiyasida 21 ta onalik changchi hujayralari o'rganilgan bo'lib o'rtacha ko'rsatkich 21,46 ta bivalentlar, va 2,2 ta kvadrivalentlar, 31D raqamli  $F_1C$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum* duragayda 9,62 ta univalentlar, 20,93 ta bivalentlar, 0,06 ta kvadrivalentlar aniqlandi. 29D raqamli  $F_1C$  *G.herbaceum* subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum* 16 ta onalik changchi xujayrasi o'rganilganda univalentlar 1,66 ta bivalentlar 21,0 ta kvadrivalentlar 2,13 ekanligi aniqlandi. 27D raqamli  $F_1C$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum* duragay o'simlikda 10,26 ta univalentlar, 5,06 ta bivalentlar, 1,5 ta kvadrivalentlar aniqlandi.  $F_1$  (subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum*) turlararo duragay kombinatsiyasida bivalentlarning o'rtacha ko'rsatkichi 6,26 ta univalentlar 5,06, kvadrivalentlar esa 2,2 ga teng bo'ldi. Xromosomalar kon'yugatsiyasi  $F_1C$  ( $F_1C$  subsp.*pseudoarboreum*  $\times$  *G.anomalum*) duragay kombinatsiyada yuqorida keltirilgan ikkita duragaylardan univalentlar (1,66) va kvadrivalentlar (0,06) sonining biroz pastligi va shuning hisobiga bivalentlar (21,0) sonining oshganligini namoyon qildi. 27D raqamli  $F_1C$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum* duragay o'simlikda 10,26 ta univalentlar, va 1,5 ta kvadrivalentlar xosil bo'lish xisobiga bivalentlar xosil bshlish ko'rsatkichi pasayib


ketgan. Hosil bo'lgan univalentlar o'rta va yirik o'lchamda, kvadrivalentlar esa yopiq halqasimon shakllarida namoyon bo'ldi (2-rasm).



**2 rasm. Meyozning metafaza- I bosqichida xromosomalar kon'yugatsiyasi.**

a- F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum* 21<sup>II</sup>+2<sup>I</sup>+1<sup>IV</sup>; b- F<sub>1</sub>C subsp.*pseudoarboreum* × *G.anomalum* 21<sup>II</sup>+2<sup>IV</sup> (100×); c- F<sub>1</sub> (F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum*) × Ravnaq-1 20<sup>II</sup>+ 1<sup>I</sup> + 1<sup>IV</sup>; d-F<sub>1</sub>C subsp.*pseudoarboreum* × *G.anomalum* 5<sup>II</sup>+10<sup>I</sup>+1<sup>I</sup> (100×).

Ikkinchi meyozi bo'linish natijasida to'rtta gaploidli mikrosporalar hosil bo'ladi. To'rttasi birgalikda yotgani uchun sporalar tetradas deb ataladi. Tetradalar yetilishi bilan alohida mikrosporalarga ajraladi. Tetradalar tahlilining zamonaviy genetikadagi zaruriy sharti shundan iboratki, allel genlarning har qanday juftligi tetradalarda 2:2 nisbatda ajralish imkonini beradi. Ba'zan esa bunday bo'linishlarda ma'lum og'ishlar kuzatiladi va bu jarayonlar faqatgina tetradalar tahlili natijasida aniqlanadi. Tetradalar tahlilini o'n uchta o'simlikda olib borishga erishildi. Tadqiqotning ko'rsatishicha o'rganilgan namunalarda ota-ona o'simliklardan tashqari to'rt ta kombinatsiyalariga tegishli o'simliklarda 90,0% dan yuqori meyotik indeks (19D F<sub>1</sub> subsp.*frutescens* × *G.anomalum*, 20D F<sub>1</sub> subsp.*frutescens* × *G.anomalum*, 28D F<sub>1</sub>C subsp.*pseudoarboreum* × *G.anomalum*, 29D F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum*.) aniqlandi. Shu bilan birga bu o'simliklarda past meyotik buzilishlar (mikroyadroli tetradalar va poliadalar) qayd etildi (3-rasm).




**3 rasm. O'rganilgan duragay o'simliklarida tetradalar tahlili:** a) normal tetrada va heptada (40×); b) (27D F<sub>1</sub>C subsp.*pseudoarboreum* × *G.anomalum* 45,509-0,599 %) (40×); d) (28D F<sub>1</sub>C subsp.*pseudoarboreum* × *G.anomalum* 91,31-1,385) (40×). e) tetradalar (32D F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum* (84,868-4,55%) (40×).

O'simliklarning keng tarqalishi, ko'payishi imkoniyati ko'pincha ularning gulchanglarda ifodalangan yuqori reproduktiv qobiliyati tufayli amalga oshadi. Ayrim o'simliklarning bitta gulida bir necha milliontagacha bo'ladigan gulchanglari yoki bitta vegetatsiya davri davomida 500 mingdan ortiq urug' hosil qilishi ularning ko'payishi va induktiv yashab qolish strategiyasi uchun xizmat qiladi. O'simliklarning ko'payishi ko'pincha gulchanglarning yuqori hayotchanligiga bog'liq. Lekin uzoq turlarni duragaylashda ko'pincha chang donalarining o'sishi va urug'lanishi turli bosqichlarda to'xtab qoladi. G'o'za namunalarda chang


hayotchanligi 50,27% dan 85,38% gacha bo‘lib, kombinatsiyalarga qarab sezilarli farq qildi. Ayrim duragaylarda (masalan, 31D va 23D) chang donalari soni juda kam (108-283 dona) bo‘lib, bunday hollarda gullar nimjon rivojlangan, gulchanglar to‘liq yetilmagan va kleystogam tipda bo‘lgani qayd etildi. Eng yuqori ko‘rsatkich  $F_1$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum* (20D-85,38%) da aniqlandi, eng past natijalar esa Ravnaq-1 bilan duragaylashgan o‘simliklarda qayd etildi (31,90-36,94%).

Umuman, o‘rganilgan 11 ta o‘simlikdan faqat bittasida yuqori ko‘rsatkich qayd etildi, qolganlarida past yoki juda past bo‘ldi. Sitogenetik kuzatuvlar meyoznining metafaza I bosqichida xromosomalar kon’yugatsiyasidagi buzilishlar, mikroyadroli tetradalar va poliadalar ko‘payishi bilan tasdiqlandi. Bu esa duragaylashga jalb etilgan diploid va tetraploid turlar orasidagi filogenetik uzoqlik va xromosoma tuzilishidagi farqlardan dalolat berdi. Eslatib o‘tish joyizki, aynan shu o‘simliklarda sporadalar tahlilida meyotik buzilishlar qayd etilgan. Ko‘rsatkichning pasayishiga turli meyotik anomaliyalar (mikroyadroli tetradalar va poliadalar) kuzatilgani sabab bo‘ldi. Bu natijalar o‘rganilayotgan namunalarning xromosoma strukturaviy tuzilishida farqlar borligidan dalolat berdi (4-rasm).



**4 rasm. O‘simliklarda hayotchanlik va gulchang donlarining o‘zgaruvchanligi:** a)  $F_1$  ( $F_1C$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum*)  $\times$  Ravnaq-1, b)  $F_1$  ( $F_1C$  subsp.*pseudoarbareum*  $\times$  *G.anomalum*)  $\times$  Ravnaq-1, d)  $F_1C$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum* e)  $F_1$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G.anomalum*.

Shu bilan bir qatorda embriologik tahlillar ham o‘tkazildi. Bunda uzoq formalarning duragaylash jarayonida changlanishdan keyin kuzatiladigan muhim embriologik bosqichlardan biri changchi naychasining urug‘ kurtagi ichiga o‘sib kirishi hisoblanadi (5-rasm). Changchi naychasi stigmadan boshlanib, usitil (stil) orqali urug‘kurtagi ichki qatlamlariga odatda embrion xonasiga yetib borganligi aniq ko‘rinmoqda.



**5 rasm. Changchi naychalarining urug‘kurtaklarga o‘sib kirishi.** A-B)  $F_1$  ( $F_1C$  subsp.*frutescens* $\times$ *G.anomalum*) $\times$ Ravnaq-1, C-D)  $F_1$  ( $F_1C$  subsp.*pseudoarbareum* $\times$ *G.anomalum*) $\times$ Ravnaq-1.

Bu holat urug‘lanish jarayonining muvaffaqiyatli kechayotganini va turlararo yoki tur ichidagi changlanishning samaradorligini ko‘rsatadi. Mazkur bosqich changchi naychasining yo‘nalgan o‘sishi, turli to‘siqlardan (fiziologik yoki genetik) o‘tib ketish qobiliyati va natijaviy zigota shakllanishi uchun zarurdir. Ayniqsa duragaylash eksperimentlarida bu jarayon reproduktiv muvofiqlikni baholash uchun muhim indikator hisoblandi (1-jadval).

Oqim sitometriyasi tahlillari natijasida uchta *Gossypium* namunasida yadroviy DNK kontenti bo‘yicha asosiy ploiddlik cho‘qqilari aniqlandi: *G.anomalum* namunasida 2C (diploid) hujayralar ustunlik qildi (1885 ta), oraliq 3–4C bosqichida 140 ta, tetraploid (4C) darajada esa atigi 6 ta hujayra kuzatildi. *G.herbaceum* subsp.*frutescens* namunasida 2C diploid holat asosiy cho‘qqini tashkil etdi (162 ta hujayra), lekin yuqoriroq ploiddlik darajalarida (3–4C, 6C) kam sonli hujayralar qayd etildi.

### 1-jadval.


#### Ota-ona shakllar va duragay o‘simliklarda embriologik ko‘rsatkichlar

№	Manbalar	soni			M±m
		tahlil qilingan tugunchalar	urug‘ kurtaklar	o‘sib kirgan naychalar	
<b>Ota-ona shakllar</b>					
1	subsp. <i>frutescens</i>	10	158	109	10,9±0,46
2	subsp. <i>pseudoarboreum</i>	10	120	102	12,9±0,31
3	<i>G.anomalum</i>	10	116	96	9,6±0,20
<b>F<sub>1</sub> duragay avlodlar</b>					
4	20D F <sub>1</sub> subsp. <i>frutescens</i> × <i>G.anomalum</i>	10	119	78	7,8±0,20
5	23D F <sub>1</sub> subsp. <i>pseudoarboreum</i> × <i>G.anomalum</i>	10	128	69	6,9±0,18
<b>F<sub>1</sub>C duragay avlodlar</b>					
6	32D F <sub>1</sub> C subsp. <i>frutescens</i> × <i>G.anomalum</i>	10	146	75	7,5±0,17
7	27D F <sub>1</sub> C subsp. <i>pseudoarboreum</i> × <i>G.anomalum</i>	10	163	77	7,7±0,17
<b>F<sub>1</sub> murakkab duragay avlodlar</b>					
8	F <sub>1</sub> (F <sub>1</sub> C subsp. <i>frutescens</i> × <i>G.anomalum</i> ) × Ravnaq-1	10	138	66	6,8±0,13
9	F <sub>1</sub> (F <sub>1</sub> C subsp. <i>frutescens</i> × <i>G.anomalum</i> ) × Ravnaq-1	10	133	59	6,1±0,11

F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum* duragayida esa keng ploiddlik diapazoni kuzatildi: 2C (3201 huj.), 4C (1305 huj.), 6C (611 huj.) va 8C (301 huj.). Bu natija sun‘iy poliploidizatsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshganini va duragay genomida yuqori darajadagi DNK kontenti shakllanganini ko‘rsatdi (6-rasm).

Anatomik tahlillar asosida ota-ona shakllari hamda allopoliploid (F<sub>1</sub>C) va murakkab duragay (F<sub>1</sub>) o‘simliklar barglarining anatomik xususiyatlari solishtirildi. Yangi uzilgan barglardan tayyorlangan preparatlar mikroskopda ko‘rib, adaksial va abaksial epidermisdagi stomata zichligi, epidermis qalinligi, palisad va g‘ovak


parenxima qalinligi, shuningdek trixomalar soni qayd etildi. Natijalar yovvoyi turlar va ularning duragaylarida stomatalar Ravnaq-1 naviga nisbatan ancha kamligini ko'rsatdi: eng past ko'rsatkich *G.anomalum* da qayd etildi ( $59,0 \pm 2,74$  dona/mm<sup>2</sup> adaksial;  $84,2 \pm 1,47$  dona/mm<sup>2</sup> abaksial). Ravnaq-1 da esa bu qiymatlar eng yuqori bo'ldi ( $105,0 \pm 1,3$  va  $138,0 \pm 1,6$  dona/mm<sup>2</sup>).



**6 rasm. F<sub>1</sub>C subsp.*frutescens* × *G.anomalum* namunadagi hujayralarning regional bo'yicha taqsimoti.** 1-diploidlik (2n), 2-tetraploidlik (4n), 3-geksaploidlik(6n), 4-oktoploidlik (8n).

Yovvoyi turlar, ayniqsa *G.anomalum* va subsp.*pseudoarboreum*da epidermis qalin ( $25,4 \pm 1,1$ ;  $27,1 \pm 1,3$  mkm), palisad ( $50,2 \pm 2,3$ ;  $52,0 \pm 2,1$  mkm) va g'ovak parenxima ( $56,8 \pm 2,0$ ;  $58,3 \pm 2,8$  mkm) kuchli rivojlangan; trixomalar ham ko'p ( $35,3 \pm 1,5$ ;  $38,7 \pm 0,9$  dona/mm<sup>2</sup>).

Bunday kombinatsiya suv yo'qotilishini kamaytirib, radiatsion yuklamadan himoya qiladi va stressga chidamlilikni oshiradi. Bu xususiyatlar bargning suvni saqlash va quyosh nurlarining ortiqcha ta'siridan himoya qilish qobiliyatini oshiradi (7-rasm).



**7 rasm. Barg anatomiyasining morfologik tahlili** a) Epiderma, palisad parenximasi, b) g'ovak parenximasi c) stomata strukturalarning mikroskopik ko'rinishi.

Olingan duragay shakllar (F<sub>1</sub>, F<sub>1</sub>C) ota-ona yovvoyi turlarga qaraganda stomatalar soni va barg hajmi jihatidan yaxshilangan, lekin ularning anatomik tuzilishi hamon Ravnaq-1 ga qaraganda qurg'oqchilikka chidamlilikni ko'rsatadigan xususiyatlarga (nisbatan kamroq stomata, qalinroq to'qimalar) ega. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yovvoyi g'o'za turlari barglarining anatomik tuzilishi abiotic stresslarga qarshi samarali mexanizmlarga (stomatalar sonining kamligi, epidermis va parenxima qalinligi, ko'p trixomalar) ega. Bu xususiyatlar ularni stress sharoitida hayot kechirishga imkon beradi. Ushbu moslashuvchan xususiyatlarni duragaylash orqali yuqori hosildor madaniy navlarga o'tkazish stressga chidamli yangi navlar yaratish istiqbolini ko'rsatadi.

Bobning uchunchi bo'limida g'o'zaning diploid va tetraploid turlararo introgressiv va murakkab  $F_1$  duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishi tahlil qilindi. Tadqiqotda diploid va tetraploid turlararo duragaylarning morfologik va xo'jalik belgilari baholandi.  $F_1$ ,  $F_1C$  hamda Ravnaq-1 bilan qayta chatishtirilgan duragaylarda hosil elementlari, tola sifat ko'rsatkichlari va stressga chidamlilikning irsiylanishi tahlil qilindi.  $F_1$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G. anomalum* va  $F_1C$  subsp.*frutescens*  $\times$  *G. anomalum* duragaylarida tola uzunligi yuqori (27,8–28,5 mm), biroq tola chiqimi past (0,41–0,56 g) qayd etildi.  $F_1$  subsp.*pseudoarboreum*  $\times$  *G. anomalum* kombinatsiyasida ko'sak og'irligi 3,55 g va tola chiqimi 0,61 g bo'lsa-da, tola uzunligi qisqa (22,3 mm) bo'lib, sifat pasaydi. Aksincha,  $F_1C$  subsp.*pseudoarboreum*  $\times$  *G. anomalum* duragayida tola chiqimi 0,81 g gacha oshib, nisbatan ustun natija olindi. Ota-ona shakllardan subsp.*frutescens* (3,51 g; 0,61 g; 29,0 mm) va subsp.*pseudoarboreum* (3,28 g; 0,61 g; 28,1 mm) barqaror ko'rsatkichlar bilan ajraldi. *G. anomalum* esa kichik ko'sak (1,83 g) va qisqa tola (8,5 mm) bilan salbiy natija ko'rsatdi. Ravnaq-1 uzun tolaga ega (38,7 mm); ko'sak og'irligi 4,78 g, tola chiqimi 0,39 g. Ravnaq-1 ishtirokida duragaylarda ko'sak og'irligi va tola chiqimi oshdi: masalan,  $F_1(F_1C$  subsp. *pseudoarboreum*  $\times$  *G. anomalum*)  $\times$  Ravnaq-1 kombinatsiyada 4,25 g va 0,93 g qayd etildi. Korrelyatsiya tahlili ko'sak og'irligi oshishi bilan tola uzunligi ortmasligini ko'rsatdi; duragaylarda 25-30 mm diapazon saqlanib, har tomonlama seleksiya yondashuvi zarur ekanligi qayd etildi.

